



## ISSIQXONA XO'JALIKLARINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI MEXANIZMLARI

Savurova Mahliyo Xolbek qizi

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali

Agrobiologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamda bizni yashash faoliyatimiz uchun ser daromat keltiradigan tadbirkorlik turlaridan biri issiqxona haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Asosan, mavsumdan tashqari davrlarda mahsulot yetishtirish, issiqxona va ochiq dala uchun ko'chatlar o'stirishga xizmat qiladi. Issiqxona oynaband yoki polimer plyonka, stekloplast va h. k. bilan o'ralgan bo'ladi. Yog'och yoki temir, po'lat, alyuminiy kabi metall uskunalardan tiklanadi. Issiqxona larning xil-ma xil turlari mavjudligi haqida bilib olasiz.

**Kalit so'zlar:** Issiqxona, iqlim, harorat, yorug'lik, namlik, oyband, polimer, plyonka, stekloplast, yog'och, temir, po'lat, alyuminiy, metal, uskuna, gidropol, pomidor, bodring, rezavor ekinlar, sabzavotlar, o'simliklar, ko'chatlar, parnik, fonarsimon, angar, blokli, so'kchakli.

### Kirish

Issiqxona — noqulay iqlim sharoitida ekinlarga sun'iy muhit (harorat, yorug'lik, namlik va b.) yaratadigan inshoot. Asosan, mavsumdan tashqari davrlarda mahsulot yetishtirish, issiqxona va ochiq dala uchun ko'chatlar o'stirishga xizmat qiladi. Issiqxona oynaband yoki polimer plyonka, stekloplast va h. k. bilan o'ralgan bo'ladi. Yog'och yoki temir, po'lat, alyuminiy kabi metall uskunalardan tiklanadi. Issiqxona larning xil-ma xil turlari mavjud.

Ular foidalanish muddatlari va davomlilikiga qarab

- qishki hamda bahorgi;
- ko'chat o'stiriladigan va sabzavot yetishtiriladigan;
- sabzavotlarni o'stirish texnologiyasiga qarab
- tuproqli va gidropon; ichki jihozlarga qarab
- so'kchakli va tuproqli turlarga bo'linadi.

Konstruktiv yechimi jihatdan issiqxonalar nur o'tkazuvchi nishab tomonlari miqdorita qarab, bir, ikki va ko'p tomonlama nishabli turlarga bo'linadi. O'zbekistonda, asosan, pomidor, bodring, rezavor ekinlar, sabzavot o'simliklari ko'chati, shuningdek, limon va manzarali o'simliklar issiqxonada yetishtiriladi.

Yozi qisqa bo'lgan o'rta va shimoliy mintaqalarda issiqxonada turli sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari yil bo'yi o'stiriladi, hosil olinadi va o'simliklarning yangi nav hamda duragaylari yetishtirish va boshqa ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi.

Qishki issiqxonalar yil bo'yi foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, ularda sabzavotlar bahorgi issiqxona, parniklar, ilitilgan yorlarla o'stirish uchun ko'chatlar yetishtiriladi. U metall yoki temir-betondan ishlanadi.

Bahorgi Issiqxonalar yengil konstruksiyalardan sabzavotlar yerda o‘stiriladigan qilib quriladi. Biologik issiqlik yoki quyosh nuri bilan isitiladi. Quyosh nuridan mukammal foidalanish uchun bir nishabli Issiqxona tomi (qiyaligi 33—45°) janubiy ga, ikki va ko‘p nishablarniki esa (29—33°) sharq va g‘arbga qaratib quriladi. Issiqxona shakli jihatidan ham fonarsimon, angar, blokli, so‘kchakli kabi bir necha turlarga bo‘linadi. Issiqxona larda o‘simlik tuproqda (geoponika), tuproqsiz (yoki gidropika) muqitda o‘stirilishi mumkin. Tuproqli Issiqxonalarda sabzavotlar bevosita srda o‘stirilib, tuproq tagidan, biologik yoki texnikaviy usulda isitiladi yoki butunlay isitilmaydi. O‘simliklarga mexanizmlar yordamida ishlov berish va parvarishlash qulay.

Gidropon Issiqxonalar tuproq ishlatmay sabzavot yetishtirishga mo‘ljallangan. Ular issiqxona poliga o‘rnatilgan yoki 70—80 sm baland ko‘tarilgan suv o‘tkazmas so‘kchaklar bilan jihozlanadi. So‘kchaklar ichi neytral substrat (shagal, kum, keramzit va b), bilan to‘ldiriladi. Avtomat qurilmalar yordamida so‘kchaklarga ozikli eritma yuborib turiladi, ushbu eritma o‘simliklarning qulay oziqlanishi va suv ichishini ta‘minlaydi. Bunday Issiqxonalarda barcha jarayonlar avtomatlashtirilgan.

Ustiga plyonka yopilgan kichik gabaritli, yengil yig‘ma Issiqxonalar bahorda foidalanish uchun katta ahamiyatga ega. Havo tayanchli yoki puflama Issiqxonalar qurilishida plyonkalarining yengillik va egiluvchanlik xossalariidan to‘la foydalaniladi. Keyingi yillarda ko‘pgina mamlakatlarda, asosan, blokli Issiqxonalar qurildi. Zamonaviy issiqxona xo‘jaliklari sanoat asosida kurilgan va yil bo‘yi sabzavot yetishtiriladigan haqiqiy fabrikalarga aylangan.

Bozorlarimizni yil bo‘yi sabzavot va poliz mahsulotlari bilan to‘kin qilishda issiqxonalarining ahamiyati beqiyos. Ayniqsa, ayozli kuz va qirchillama qish paytida vitamininga boy, yangi uzilgan sabzavotlarni tanavvul qilishga ne yetsin. Bundan tashqari issiqxonalar oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Ammo tan olish kerak, issiqxona xo‘jaligini jadal rivojlantirish va samarali foydalanishda yuzaga kelayotgan talay muammolar mavjud. Qish paytida issiqxonalarini isitishda gaz ta‘minotida nomutonosiqliklar yuzaga kelmoqda.

Mazkur o‘tkir muammolarni bartaraf etish hamda issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirishning yangi mexanizmlarini yaratishda Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 2 noyabrda qabul qilingan “Issiqxona xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori muhim o‘rin egallashi tabiiy.

Chunki mazkur qarorda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, issiqxona xo‘jaliklari va muzlatkichli omborxonalarining iqtisodiy jihatdan samarali ishlashi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, mazkur sohada band bo‘lgan aholi daromadlarini oshirishni qo‘shimcha rag‘batlantirish masalalariga e‘tibor qaratilgan. Xususan, bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi tomonidan issiqxona xo‘jaliklariga urug‘, ko‘chat, mineral o‘g‘it va boshqa moddiy resurslarni yetkazib berish va yetishtirilgan mahsulotni ulardan xarid qilish belgilangan.

Bundan tashqari mas‘ul vazirliklar va viloyatlar hokimliklari taklifiga ko‘ra, xalqaro moliya institutlari, maqsadli jamg‘armalar hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi



mablag'lari hisobidan issiqxonaga xo'jaliklari va muzlatkichli omborxonalar uchun ajratilgan milliy va xorijiy valyutadagi kreditlarni qaytarish muddatlarini umumiy hisobda 14 yil etib belgilash va imtiyozli davrini 3 yildan 5 yilgacha uzaytirish qayd etilgani muhim yangilik hisoblanadi. Bunda, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan avval taqdim qilingan kafillik va kredit foizlari kompensatsiyalari saqlanib qolinishi ham juda ko'ngildagi ish bo'ldi.

Yana bir qulaylik shundan iboratki, issiqxonaga xo'jaliklarini aylanma mablag' bilan ta'minlash uchun tijorat banklari tomonidan bir yil muddatga olti oylik imtiyozli davr bilan kredit ajratish belgilandi.

Bugun issiqxonaga xo'jaligi rahbarlarini qiynab kelayotgan o'tkir muammolardan biriga ham shu qarorda yechim topish mumkin. Ya'ni issiqxonaga xo'jaliklariga tabiiy gaz bo'yicha to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmaganlik uchun penya summasi 2022 yil 1 oktyabrdan 2023 yil 1 aprelgacha, istisno tariqasida, hisoblanmaydi. Shuningdek, qarorda issiqxonaga xo'jaliklari uchun tijorat banklariga kredit va ularning foizini qaytarish muddati qat'iy ravishda mahsulotning pishib-etilishi davriga moslashtirilishi belgilangani ham qo'shimcha imtiyozlar yaratadi.

Modomiki, gap issiqxonalar haqida ketar ekan, yurtimizdagi barcha issiqxonalar ishlab tursa va unda qishin-yozin sarxil mahsulotlar yetishtirilsa, bu mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini ta'minlash hamda yangi ish o'rinlari ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan mazkur qaror orqali issiqxonaga xo'jaliklarini rivojlantirishning yangi mexanizmi joriy etishda biz deputatlar ham bosh-qosh bo'lishimiz lozim. Zotan, elu yurt ma'murchiligi va mamlakat istiqbolini yaratishda har birimiz mas'ulmiz.